

## SUKUK TUSHUNCHASI VA UNI RIVOJLANTIRISH

*Qahramanova Xusnora*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
3-bosqich , MT-91 guruh talabasi*

**Kalit so'zlar:** Sukuk, Sukuk turlari, Islom banklari, Bank va mablag'ni ishlatuvchi, garov, an'anaviy kreditlash.

**Annotatsiya:** Sukuk haqida tushuncha. Mudoraba shartnomasi turlari va o'ziga xos xususiyatlari. Murobaha shartnomasi va uning an'anaviy kreditdan farqi . Murobaha Islom banklari tomonidan amalga oshiriladigan aktivlarni moliyalashtirishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi.

**Sukuk** (islomiy qimmatli qog'oz ) – aktivning yoki tadbirkorlik faoliyatining foyda yoki zararida ko'rsatilganulushda ishtirok etishini bildiruvchi qimmatli qog'oz.Ingliz manbalarida islomiy obligatsiyalar nomi ostida keng qo'llaniladi.

### **Sukuk turlari**

Mudoraba sukuki

Mushoraka sukuki

Murobaha sukuki

Ijara sukuki

Salam sukuki

**MUDORABA** – foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan ulushli moliyaviy vosita hisoblanadi.

Mudoraba ikki yoki undan ortiq taraflar o'rtasida biznes yoki savdo yuritishdagi sherikchilikni o'zida aks ettiradi.

Mudoraba shartnomasi islomiy banklarda ikkita turli holatlarda qo'llanishi mumkin

Bank va mablag'ni bankka beruvchi o'rtasida

Bank va mablag'ni ishlatuvchi ( qarz oluvchi ) o'rtasida

Mudorabaning to'g'ri bo'lishi uchun unda bir necha shartlar topilishi lozim

1. Sarmoya tijoriy tovarlar yoki savdo mollari bo'lmay, balki naqd pul bo'lishi shart.

2. Sarmoyaning miqdori shartnomaga tuzilgan paytda qayd etib qo'yilishi yoki bu qiymat undan kelgan foyda egalari o'rtasida taqsimlangunga qadar ma'lum bo'lishi shart.

3. Sarmoya birovning zimmadagi qarz va ishchining qo'lga olish imkonini yo'q g'oyib mablag' bo'lmay, balki qo'ldagi mablag' bo'lishi shart.

4. Sarmoyani ishchining qo'liga tijorat taqozosiga ko'ra ishlata oladigan tarzda topshirish shart.

5. Ikki tomon shartnomada foyda oz yoki ko'p bo'lishidan qat'I nazar, uni yarimyoki uchdan bir kabi ma'lum nisbatda taqsimlashga kelishib olishlari shart.

6. Foyda miqdorining ma'lum bo'lishi ham shart, chunki shartnoma shuning ustiga quriladi. Foydaning noma'lumligi shartnomani fosid qiladi.

Mudoraba shartnomasining turlari

Mudoraba shartnomasi qanday yakunlanganiga ko'ra turlari:

Egalik bilan yakunlanuvchi (Mudoraba muntahiya bittamlik)

Egalik bilan yakunlanmaydigan mudoraba

Ishtirokchilari soniga ko'ra :

Ikki tomonlama yoki oddiy mudoraba

Kollektiv / jamoaviy yoki qo'shma mudoraba bitimi

Mudoraba shartnomasining o'ziga xos xususiyatlari

- Shariat ruhsat etgan har qanday mulk mudoraba bo'lishi mumkin, bu holatda qarz kapitalmablag'I sifatida ishlatilishi mumkin emas.

- Investor va tadbirkorning foyda ulushi va uni taqsimlash mexanizmi shartnoma bajarilishi avvalida kelishilgan bo'lishi shart.

- Foyda miqdori mutlaq qiymatlarda , masalan , kapitalning foizli ulushi ,valyutada o'rnatilishi yoki kafolat;anishi mumkin emas.

- Sheriklarning har biri foydadagi o'z ulushini boshqa sherikka ixtiyoriy tartibda berish huquqiga ega.

- Mudorabga bog'liq bo'limgan holatlarda va fors-major natijasida zarar kelsa, barcha xarajatlar investor zimmasiga bo'ladi.

- Mudorib, o'z navbatida , faqat o'z mehnati va vaqtini yo'qotadi.

- Shunga qarmay, tadbirkorning noto'g'ri boshqaruvi va mas'ulyatsizligi isbotlansa, u moliyaviy yo'qotishlar uchun javobgar bo'ladi.

- Qoidaga ko'ra ,mudoraba shartnomasi vaqt bilan chegaralanmaydi.

- Shartnomaning amal qilish muddati tomonlarning biri tarafidan har qanday vaqtida bekor qilinishi mumkin, bunda hamkorni xabardor qilish shart.

- Mudoraba odatda qisqa va o'rta muddatli investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qo'llaniladi.

- Shuni qayd etish lozimki, bank berilgan mablag'lar uchun garov talab qilmagani bois, mudoraba shartnomalarining xatari o'ta yuqori hisoblanadi va ular u darajada keng tarqalmagan.

Murobaha shartnomasi tomonlar o'rtasida oldi-sotdi shartnomasi ustama haq evaziga bo'lishini anglatadi.

Murobaha Islom banklari tomonidan amalga oshiriladigan aktivlarni moliyalashtirishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi.Murobaha shartnomasida

sotuvchi o'z yetkazib beruvchisidan tovarlarni sotib olayotganda , xaridorga sotib olishining tannarxini sotishdan oldin aytadi, ya'ni bank tovarning tannarxiga qancha ustama qo'yganini oshkor qiladi.

Murobaha shartnomasi shartlariga ko'ra, bank foydasi "xarajatlar+qo'shimcha to'lov" formulasi bo'yicha paydo bo'ladi. Demak, murobaha- bu shunday moliyaviy va savdo operatsiyasi bo'lib, unda yakuniy sotish narxi bank mijozga ko'rsatadigan xizmatni baholagan miqdorga ko'payadi.(“ro-ba-ha” ildizi “foyda olish, g'alaba qozonish degan ma'noni anglatadi.

## MUROBAHA

Murobahaning an'anaviy kreditlashdan farqi

- Moliyaviy vositachi qayta sotiladigan mulkdan kelib chiquvchi barcha xatarlar ila uning to'laqonli egasi bo'lishi shart hisoblanadi.

- Moliyaviy xatarlar:

1. Almashinuv kursining keskin o'zgarishi
2. Inflyatsiya
3. Bojxona to'lovlarining oshishi
4. Soliqlarni ishishi yoki yangi turi paydo bo'lishi
5. Murobaha shartnomasi bo'yicha olinadigan mahsulot bilan bog'liq xatarlar
6. Xaridorning tovarni olishdan bosh tortishi va hokazolar.

Ijara- mazkur vosita an'anaviy moliyaviy tizimdagи lizingga o'xshashdir. Uning doirasida muassasa buyumni sotib oladi va mijozga ijara to'lovi evaziga ijaraga topshiradi.

*Salam-xaridor sotuvchiga kelishilgan tovar qiymatini avvaldan to'laydigan bitim bo'lib, sotuvchi tovarni ma'lum bir vaqt oralig'ida yetkazib berishni zimmasiga oladi.*

"Salam" lug'atda "taslim qilish", "berish" ma'nosini beradi.

**Xulosa qilib aytish mumkinki:** Demak, yuqoridagi shartlarga to'g'ri keladigan mahsulotlarga avvaldan pul berib qo'yish joiz. Lekin salam savdosida belgilangan vaqt kelgach, mahsulotning narxi kelishilgan narxdan arzon yoki qimmat bo'lishi e'tiborga olinmaydi. Balki, mahsulot salam bitimida ko'rsatilgan narxda yetkazib beriladi.

## Foydalilanigan adabiyotlar:

1. [www.treasurers.org](http://www.treasurers.org) sayti
2. [www.investopedia.com](http://www.investopedia.com) sayti
3. Islomiy qimmatli qog'ozlar materiallaridan.